



MINTAQA IQTISODIY TARMOQLARINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

PhD **Bekmurodova Saodat**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0001-8388-4854

saodatikromovna12@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintqa tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududiy iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish masalalari o'rganildi. Maqolada mintqa tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, zamonaviy innovatsion yondashuvlar va xorijiy tajribalar asosida istiqbolli yo'nalishlar yoritilgan. Tadqiqot natijasida hududlarda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola mintqaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion rivojlanish, mintqaviy iqtisodiyot, hududiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar, investitsion muhit, raqobatbardoshlik, modernizatsiya, barqaror iqtisodiy o'sish.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СЕКТОРОВ РЕГИОНА

PhD **Бекмуродова Саодат**

Университет экономики и педагогики

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты инновационного развития отраслей региона. В ходе исследования были изучены вопросы внедрения инновационных технологий в региональную экономику, повышения эффективности производства и усиления конкурентоспособности. В статье освещены факторы, влияющие на развитие отраслей региона, современные инновационные подходы и перспективные направления на основе зарубежного опыта. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по поддержке инновационной деятельности в регионах, улучшению инвестиционного климата и широкому внедрению цифровых технологий. Данная статья служит модернизации и устойчивому развитию региональной экономики.

Ключевые слова: инновационное развитие, региональная экономика, территориальные отрасли, цифровые технологии, инвестиционный климат, конкурентоспособность, модернизация, устойчивый экономический рост.

PROSPECTS OF MODERN DEVELOPMENT OF ECONOMIC SECTORS OF THE REGION

PhD **Bekmurodova Saodat**
University of Economics and Pedagogy

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of the innovative development of regional sectors. During the research, issues related to the introduction of innovative technologies into the regional economy, increasing production efficiency, and strengthening competitiveness were studied. The article highlights the factors influencing the development of regional sectors, modern innovative approaches, and promising directions based on foreign experience. As a result of the research, proposals and recommendations were developed to support innovative activities in regions, improve the investment climate, and widely introduce digital technologies. This article contributes to the modernization and sustainable development of the regional economy.*

Keywords: *innovative development, regional economy, territorial sectors, digital technologies, investment climate, competitiveness, modernization, sustainable economic growth.*

Kirish.

Mintaqa iqtisodiyotida innovatsion ishlab chiqarish natijalari bir qancha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. yalpi ichki mahsulotning o'sishi, narxlar darjasining o'sishi, tarmoqlar o'sish darajasi va boshqalar. Ammo iqtisodiyot tarmoqlarida inovatsiyalarning joriy qilinishi hamda raqamli iqtisodiyotning jadallik bilan kirib kelishi ko'rsatkichlar tizimi raqobatbardoshlik shular jumlasiga kiradi.

Innovatsion ishlab chiqarish yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, jarayonga yangi texnologiyalar va usullarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Bu YaHM ning o'sishiga olib keladi. Mintaqa iqtisodiyotida innovatsiyalar asosida qo'shilgan qiymatni yaratish, jarayonda barcha iqtisodiy sektorlarning qamrovini ta'minlashga innovatsion mahsulotlarning qo'shilgan qiymatdagi ulushini oshirib borishni talab qiladi.

Mintaqani innovatsion rivojlantirish istiqbollarini rejalashtirish, maqsadni amalga oshirishda jarayon vaqtini tezlashtirish, mintaqaning innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini baholash va innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishda mintaqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining keyingi davrlardagi o'zgarish tendensiyasini oldindan kuzatish imkonini yaratish – bu aniq va sifatli prognoz parametrlariga ega bo'lish bilan amalga oshadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi globalashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqa tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash hamda xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda innovatsion texnologiyalar muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va transport kabi tarmoqlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mintaqalarning barqaror iqtisodiy o'sishiga xizmat qiladi.

Mintaqa tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va aholi farovonligini yaxshilashga ham imkon beradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari, ilmiy-texnik yutuqlar va innovatsion boshqaruv mexanizmlaridan samarali foydalanish hududlarning rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi.

Mazkur maqolada mintaqa tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning nazariy asoslari, zamonaviy tendensiyalari hamda istiqbolli yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Innovatsiya atamasini Shumpeter (2004) tadbirkorlik faoliyatiga bog'lab birinchi kiritgan bo'lib, innovatsiya – bu yangi xom – ashyo va elementlardan foydalanish, yangi ishlab chiqarish

faoliyati va bozorlarning ochilishi, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalarining tarkibiy o'zgarishi va marketingdan iborat harakatlarning hosilaviy o'zgarishi, deb ta'riflaydi.

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, ishlab chiqarish va tashkiliy jihatlar muhim. Shuningdek, mintaqa ichidagi hamda mamlakatdagi o'zaro aloqalarni ta'minlovchi infratuzilma ham barqaror rivojlanishning asosiy omil hisoblanadi. Infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiyotga bevosita ta'sir qilib, multiplikativ samarasi o'rtacha dunyo mamlakatlarida 1,59 dan yuqori. Mazkur kattalik Rossiyada 2,05 ga teng (Давыдова, 2017). BMT va Oksford universiteti tadqiqotlarini ko'rsatishicha, infratuzilmaning rivojlanishi 2015-yilda e'lon qilingan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirishini 72 foizga ta'minlovchi omil hisoblanadi (Battacharya et al., 2023). Demak, innovatsiya faoliyatini to'g'ri tashkil qilish bevosita barqaror o'sish bilan bog'liq ekan. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi o'z navbatida ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishga ham bog'liq.

Yuqoridagi olimlarning fikrlari va qarashlaridan kelib chiqib, mintaqada innovatsion rivojlanish – hududlarda mavjud resurslar salohiyatidan fan-texnika taraqqiyotidan foydalangan holda istiqbolni belgilash jarayonidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik kuzatuv, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini mintaqaviy iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, tarmoqlar iqtisodiyoti va hududiy boshqaruv bo'yicha mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida mintaqalar iqtisodiy tarmoqlarining rivojlanish darajasi o'zaro solishtirilib, ularning iqtisodiy salohiyati, resurs bazasi va innovatsion imkoniyatlari baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda mintaqani innovatsion rivojlantirish iqtisodiy salohiyat parametrlarini ko'tarishning eng asosiy talabidir. Shu ma'noda tadqiqotimizda innovatsion rivojlantirishning prognoz parametrlarini hisoblash uchun jarayonni turli tarmoqlar darajasida aks ettiruvchi iqtisodiy modellar ishlab chiqildi. Modellashtirish jarayonida natijaviy (Y) va ta'sir etuvchi (X) omillar tizimini shakllantirib oldik. Bu yerda (Y) turkumiga kiruvchi biror miqdoriy kattalik, o'z navbatida (X) turkumga ham tegishli bo'lishligi mumkin.

(Y) va (X) turkum omillari bo'yicha quyidagi belgilashlarni amalga oshirildi. Jumladan,

Y_1 – mintaqada sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd. so'm;

Y_2 – mintaqada qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd, so'm;

Y_3 – mintaqada xizmat ko'rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm;

Y_4 – mintaqada YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm;

X_1 - mintaqada innovatsion mahsulot (xizmatlar) uchun xarajatlar, mlrd. so'm;

X_2 – mintaqada ilmiy-texnik xizmatlar hajmi, mlrd. so'm;

X_3 – mintaqada ta'lim sohasidagi umumiy xizmatlar, mlrd. so'm;

X_4 - mintaqada OTM professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, foizda;

X_5 – mintaqada innovatsion loyihalar turkumida bajarilgan xo'jalik shartnomalari hajmi, mlrd. so'm;

X_6 – mintaqada ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish xarajatlari, mlrd so'm.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha korrelyatsion tahlil natijalari

Korrelyatsion matrisa					Bog'lanish tavsifi
(R,t,p)	Y1	X3	X5	X6	Bog'lanish tarkibi: $Y_1 = F(X_3, X_5, X_6)$ Shakli: Chiziqsiz bog'lanish - darajali Erkli o'zgaruvchilarning multikollinearlik xossasiga moyilligi: Erkli o'zgaruvchilar o'rtada kuchli juft korrelyatsion bog'lanish mavjud emas Ajratilgan sifat o'zgaruvchilar: mavjud emas Qo'shimcha omil: mavjud emas
Y1	1.000000				
X3	0.947613	1.000000			
X5	0.939558	0.310415	1.000000		
X6	0.994034	0.331719	0.589338	1.000000	
(R,t,p)	Y2	X1	Y1	Q1	Bog'lanish tarkibi: $Y_2 = F(X_1, Y_1, Q_1)$ Shakli: Chizikli bog'lanish Erkli o'zgaruvchilarning multikollinearlik xossasiga moyilligi: Erkli o'zgaruvchilar o'rtada kuchli juft korrelyatsion bog'lanish mavjud emas Ajratilgan sifat o'zgaruvchilar: mavjud (X_1) Qo'shimcha omil: mavjud (Q_1)
Y2	1.000000				
X1	0.966016	1.000000			
Y1	0.962539	0.566352	1.000000		
Q1	0.928105	0.249128	0.673888	1.000000	
(R,t,p)	Y3	X2	Q2		Bog'lanish tarkibi: $Y_3 = F(X_2, Q_2)$ Shakli: Chizikli bog'lanish Erkli o'zgaruvchilarning multikollinearlik xossasiga moyilligi: Erkli o'zgaruvchilar o'rtada kuchli juft korrelyatsion bog'lanish mavjud emas Ajratilgan sifat o'zgaruvchilar: mavjud (X_2) Qo'shimcha omil: mavjud (Q_2)
Y3	1.000000				
X2	0.995727	1.000000			
Q2	0.729911	0.276339	1.000000		
(R,t,p)	Y4	X3	X4		Bog'lanish tarkibi: $Y_4 = F(X_3, X_4)$ Shakli: Chiziqsiz bog'lanish - darajali Erkli o'zgaruvchilarning multikollinearlik xossasiga moyilligi: Erkli o'zgaruvchilar o'rtada kuchli juft korrelyatsion bog'lanish mavjud emas Ajratilgan sifat o'zgaruvchilar: mavjud emas Qo'shimcha omil: mavjud emas
Y4	1.000000				
X3	0.920852	1.000000			
X4	0.894464	0.513727	1.000000		

Manba: muallif tomonidan Eviews dasturidan foydalanib tuzilgan.


Ushbu omillarning barchasi miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, statistik nuqtai nazaridan diflyator o'zgarishini hisobga olgandagina taqqoslash imkoni bo'ladi. Shu sababli barcha ko'rsatkichlar 2019 yil narxlar indeksi bo'yicha real qiymatlarida qayta hisoblab chiqildi.

Tadqiqotimiz jarayonida o'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalari, har bir bog'liq o'zgaruvchilar funksiyasining erkli o'zgaruvchilar tarkibini tanlash imkoniyatini beradi. Quyida bog'liq o'zgaruvchilar kesimida korrelyatsion tahlil matritsasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining rivojlanish tendensiyalarini trend qonuniyatlarda ko'rib chiqamiz. Trend dinamikada ma'lum darajada turli tebranishlardan holi tendensiya sifatida ko'rsatkichlarning miqdor jihatdan asosiy xarakterini ochib berishda xizmat qiladi (Ishnazarov va boshqalar, 2019). Umuman olganda ko'rsatkichlarning trend qonuniyatlari ta'sirida rivojlanishi barqaror monotonlik xususiyatiga ega ekanligini ifoda etib, ularni kuzatish ko'lamining kengayib ketish bilan bog'liq murakkabligini osonlashtiradi.

Shu sababli tadqiqotimiz jarayonida natijaviy ko'rsatkichlar tendensiyasining trend xususiyatlari tekshirildi.

Natijalar Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tendensiyasining trend hususiyatiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ekonometrik tadqiqotlarda o'zaro bog'liq omillarning bir vaqtda taqsimlanish qonunlari ta'sirida bo'lishligi ularning bog'lanish funksiyasining sifatini oshiruvchi jihat ekanligiga e'tibor beriladi. Buning sababi taqsimot holati qaysidir fundamental funkcionallikni aniqlashi ikki miqdoriy o'zgaruvchilar o'rtada moslikni sodda holatda o'rnatish imkoniyatini beradi.




1-rasm. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlab chiqarishning trend chiziqlari, funksiyasi va moslik darajasi

Manba: muallif ishlanmasi.

(Y) turkumiga kiruvchi natijaviy omillar tendensiyasining trend xususiyatlari

tekshirilganda, xususan, mintaqada sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmining o'zgarish dinamikasi o'suvchi parabolik trend hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, mintaqa sanoat tarmog'ida innovatsion jarayonlarning kechishi, innovatsion mahsulot (xizmat)lar ishlab chiqarilishidagi foydalaniladigan vositalar, usullarning izchilligi turg'un holatida emas, balki tezlanuvchan xarakter kasb etmoqda.



2-rasm. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarning trend chiziqlari, chiziqlari, funksiyasi va moslik darajasi

Manba: muallif ishlanmasi.

Mintaqada qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmining o'zgarish dinamikasi o'suvchi chiziqli trend hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, mintaqa qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsiyalashuv darajasi tezlanuvchan xususiyatga ega emas, aksincha barqaror o'suvchi tezlikka ega.

Mintaqada xizmat ko'rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmining tendensiyasi o'suvchi parabolik trendga ega. Buning ma'nosi mintaqada xizmat ko'rsatish tarmog'i subyektlarining innovatsion faoliyati tezlanuvchan jarayon bilan bormoqda.

Ushbu ko'rsatkichlarning umumlashmasi sifatida mintaqa YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi tendensiyasi o'zgarishi o'suvchi parabolik trendga ega. Demak, mintaqa iqtisodiyotining innovatsion salohiyati tezlanuvchan tendensiya bilan shakllanmoqda deyish mumkin.

3-rasmda (X) turkum omillari, ya'ni ta'sir omillarining trend tasvirlari keltirilgan.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlab chiqarish va ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari ucnun tuzilgan trend modellarning adekvatlik parametrlari

Ko'rsatkich belgisi	Koeffitsiyentlar	Standart xatolik	t-statistika	P-qiyamat
X ₁	6,147048	0,090134	68,19896	3,57E-22
	0,123821	0,007905	15,66310	1,56E-11
X ₂	3,417946	0,019171	178,2862	2,94E-29
	0,100079	0,001681	59,52077	3,57E-21
X ₃	93,49818	26,21181	3,567025	0,002809
	27,76711	11,05976	2,510644	0,023996
	-4,95175	1,267876	-3,90555	0,001405
	0,263091	0,041741	6,302926	1,42E-05
X ₅	151,6758	43,79735	3,463128	0,003477
	105,6083	18,47976	5,714806	4,09E-05
	-16,7753	2,118496	-7,91848	9,77E-07
	0,804734	0,069745	11,5382	7,38E-09
X ₆	409,9002	4,568353	89,72603	3,41E-24
	1,272703	0,026547	47,94198	1,38E-19
Y ₁	834,2172	89,33322	9,338264	7,06E-08
	-91,9463	20,56892	-4,47016	0,000387
	15,70381	0,999151	15,71717	3,79E-11
Y ₂	1320,245	49,62266	26,6057	2,7E-15
	209,9731	4,352195	48,24534	1,24E-19
Y ₃	245,6884	53,49723	4,592544	0,0003
	-77,9771	12,3177	-6,33049	9,99E-06
	10,83743	0,598342	18,11244	4,39E-12
Y ₄	2530,929	52,95751	47,79169	1,46E-19
	28,61601	0,307737	92,98866	1,86E-24

Manba: muallif tomonidan Eviews 10 dasturida hisoblangan.

(X) turkumiga kiruvchi ta'sir omillari tendensiyasining trend xususiyatlari tekshirilganda, xususan, mintaqada innovatsion mahsulot (xizmatlar) uchun xarajatlarning o'zgarish dinamikasi o'suvchi eksponensial trend hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, mintaqada innovatsion mahsulot (xizmatlar) uchun xarajatlarning ortishi tezlanuvchan xarakter kasb etmoqda Trend shakllari bo'yicha eng moslik darajasi yuqorisi darajali trend bo'lib, u ham 78

foizni tashkil etadi. Bu holatni oliy ta'lim tizimida ilmiy salohiyatli kadrlarning boshqa tarmoqlarga o'tishi, yoki nota'lim tashkilotlariga migratsiyasi bilan ta'kidlash o'rinli deb hisoblaymiz. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich bo'yicha prognoz parametrlarini hisoblashda boshqa turdagi, xususan vaqt seriallarida ko'p qo'llaniladigan MA(2) tipidagi model ishlab chiqildi.

$$X_{4t} = 23,9784 + 1,19162 \cdot m_{t-1} + 0,417863 \cdot m_{t-2}, R^2 = 0,93 \quad (3.2.1)$$

$$z = (10,93) \quad (5,166) \quad (2,198)$$

$$p = (8,02 \cdot 10^{-28}) \quad (2,4 \cdot 10^{-7}) \quad (0,028)$$

Bu yerda m_k - k-davr uchun omil bog'liqligining tasodifiy komponenti, R^2 - determinatsiya koeffitsiyenti, z - vaqt seriyasida tasodifiy komponentning statistik ahamiyatligini tekshiruvchi mezon ko'rsatkich, p - qiymat model shaklining to'g'ri tanlanishi va nollik gipotezani tekshirish uchun mezon ko'rsatkich.

(Y) va (X) turkum omillari uchun tuzilgan trend modellar bo'yicha adekvatlik darajalari tekshirildi, Jumladan, har bor model tarkibidagi parametr bo'yicha standart xatolik, t-statistika va p-qiymatlar o'zlashtirgan qiymatlarida modelning jarayonni aks ettirish xossasiga ega ekanligini ko'rish mumkin (1-jadval). (Y) va (X) turkum omillari uchun tuzilgan trend modellar sifatini baholashda qo'llaniladigan determinatsiya koeffitsiyentlariga e'tibor berilsa (1 va 2-rasmlar) natijaviy variatsiyalar dispersiyasining trenddan hisoblash imkoniyati (93 foizdan yuqori.)

Hisoblash yakunlarida quyidagi natijalar asoslandi:

- mintaqada innovatsion mahsulot (xizmatlar) uchun xarajatlar keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 13,2 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 2,31 barobarga ortishi kutiladi;

- mintaqada ilmiy-texnik xizmatlar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 10,5 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 1,72 barobarga ortishi ta'minlanadi;

3-jadval

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari

Prognoz yillari	Innovatsion mahsulot (xizmatlar) uchun xarajatlar, mlrd. so'm	Ilmiy-texnik xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	Ta'lim sohasidagi umumiy xizmatlar, mlrd. so'm	OTM professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, foizda	Innovatsion loyihalar turkumida bajarilgan xo'jalik shartnomalari hajmi, mlrd. so'm	Ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish xarajatlari, mlrd so'm
	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	X ₅	X ₆
2025	6293,632	249,5379	929,369	45,73796	2424,199	971,1623
2026	7123,218	275,8039	1109,118	49,99159	2924,637	1025,888
2027	8062,154	304,8346	1313,691	54,09090	3497,749	1083,160
2028	9124,855	336,9211	1544,667	57,60681	4148,364	1142,977
2029	10327,63	372,3849	1803,625	60,71758	4881,310	1205,340
O'rtacha o'sish, %	113,18	110,53	118,47	107,85	119,64	105,57
2029 yilda 2023 yilga nisbatan	2,31	1,72	2,65	1,61	2,91	1,35

Manba: muallif tomonidan hisoblangan. qiymatlar 2019-bazis yil bo'yicha real qiymatlarda berilgan.

- mintaqada ta'lim sohasidagi umumiy xizmatlar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun

o'rtacha 18,5 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 2,65 barobarga ortishi ta'minlanadi;

- mintaqada OTM professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 7,9 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 1,61 barobarga ortishi ta'minlanadi;

- mintaqada innovatsion loyihalar turkumida bajarilgan xo'jalik shartnomalari hajmi, keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 19,6 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 2,91 barobarga ortishi ta'minlanadi;

- mintaqada ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish xarajatlari keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 5,6 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 1,35 barobarga ortishi kutiladi.

Tuzilgan funksiyalarning moslik ko'rsatkichlari talab darajasida ekanligidan kelib chiqib, (Y) turkumga kiruvchi natijaviy ko'rsatkichlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini hisoblab chiqildi (3-jadval).

Hisoblash yakunlarida quyidagi natijalar asoslandi:

- mintaqada sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 9,6 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 1,72 barobarga ortadi;

- mintaqada qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 3,5 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 1,2 barobarga ortadi;

- mintaqada xizmat ko'rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 10,9 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 1,8 barobarga ortadi;

- mintaqada YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 7,9 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029 yilda 2023 yilga nisbatan 1,55 barobarga ortadi.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar iqtisodiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Navoiy va Toshkent viloyatlarida iqtisodiy tarmoqlar rivojlanish darajasi mavjud resurslar va infratuzilma imkoniyatlariga qarab farqlanadi. Ayrim hududlarda sanoat va investitsion faollik yuqori bo'lsa, ayrimlarida qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ustunlik qilmoqda. Bu esa mintaqalarni kompleks va muvozanatli rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kelgusida mintaqalar iqtisodiy tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, mahalliy investitsiyalarni rag'batlantirish, transport-logistika tizimini takomillashtirish hamda malakali mehnat resurslarini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash mumkin.

1. Mintaqalar iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

2. Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi bandligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

3. Sanoat tarmoqlarida energiya tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Battacharya et al. (2023) "The New Climate Economy Report," Global Commission on the Economy and Climate, 2023, at <https://newclimateeconomy.report>.

Ishnazarov A. va boshqalar. (2019) Ekonometrika asoslari. O'Q. Iqtisodiyot, –Toshkent: -258 b.

Shumpeter Y.A. (2004) Istoriya ekonomicheskogo analiza: V 3-x t. / Per. s angl, pod red. V. S. Avtonomova. –SPb.: Ekonomicheskaya shkola, g. –T.LVI + 496 s. ISBN 5-900428-60.

Давыдова О.А. (2017) Инструменты развития производственной инфраструктуры города Москвы // Вестник РЕУ им. Г. В. Плеханова., №4(94). С.144-153.